



TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA FITOLIZIN NEFROKAPS

Preparatning savdo nomi: Fitolizin Nefrokaps

Dori shakli: yumshoq kapsulalar

Tarkibi:

1 ta kapsula quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: quyidagi aralashmasining quyultirilgan ekstrakti (etanol 45% ob/ob, 2.8-4:1): petrushka ildizi + pichan pajitnik urug'lari + taron qushi o'ti + yer bag'irlab o'sadigan ildizpoyasi + oq qayiq barglari + qirqbo'g'imi o'ti + lyubistok ildizi + yevropa zolotarnik o'ti + piyoz qipig'i (7/6/6/5/4/4/2/2);

yordamchi moddalar: makrogol 400, makrogol 4000, marmarak muskat moyi, qalampir yalpizli moyi, oddiy qarag'ay moyi, shirin apelsin moyi;

kapsula qobig'i: jelatin, qisman digidirlangan suyuq sorbitol (E420), tozalangan suv.

Ta'rifi: o'ziga xos hidli, quyuq yog'li massa bilan to'ldirilgan, o'rtasi chokli, cho'zinchoq shakldagi to'q-jigar rangdan qora ranggacha bo'lgan yumshoq kapsulalar.

Farmakoterapevtik guruhi: Urologik kasalliklarni davolash uchun preparatlar. Urologik kasalliklarni davolash uchun boshqa preparatlar. Nefrourolitiazni davolash uchun preparatlar.

ATX kodi: G04BC

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Preparat tarkibidagi biologik faol moddalar siydik haydovchi, o'rtacha saluretik, shuningdek, yallig'lanishga qarshi, antibakterial va antispastik ta'sirga ega. Preparat urolitiazni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi.

Preparat konkrementlarning ayrim turlarini eritish qobiliyatini namoyish etadi. Preparat asosan siydikda mineral tarkibiy qismlarning konsentratsiyasi tashxis qo'yilgan tosh shakllanishisiz ko'tarilganda, ularning kristallanishini oldini olish uchun tavsiya etiladi

Urolitiaz yoki siydik cho'kmasi mavjud bo'lsa, ushbu preparatni qo'llash siydik yo'llarida toshlarning kristallanishini oldini oladi.

Ushbu preparatning faol moddasi aralashmaning quyuq ekstrakti bo'lib, u o'simlik tarkibiy qismlari aralashmasidan iborat: petrushka ildizi, pichan pajitnik urug'lari, taron qushi o'ti, yer bag'irlab o'sadigan ildizpoyasi, oq qayiq barglari, qirqbo'g'imi o'ti, lyubistok ildizi, yevropa zolotarnik o'ti, piyoz qobiqlari.

Farmakokinetikasi

Majmuaviy o'simlik preparati, farmakokinetik tadqiqot natijalari mavjud emas.

Qo'llanilishi

An'anaviy dorivor o'simlik bo'lib, u siydik yo'llarining infeksiyon - yallig'lanish kasalliklari, urolitiaz (mayda konkrementlar, "qum" mavjud bo'lganda) bilan og'rigan patsientlar uchun majmuaviy davolashning bir qismi sifatida va nefrolitiazning oldini olish sifatida qo'llaniladi.

Qo'llanish usuli va dozalar

Dozalash rejimi

Katta yoshdagi patsientlar: bir sutkada 3-4 marta 2 tadan kapsula.

Bolalar va 18 yoshdan kichik yoshdagi o'smirlarda qo'llanilishi tavsiya etilmaydi.

Qo'llanish davri

Shifokor maslahatisiz 2-4 haftadan ko'proq muddat qo'llanilishi tavsiya etilmaydi.

Agar preparat qo'llanilish davrida sog'ayish boshlanmasa, simptomlar saqlanib qolsa yoki sog'liq yomonlashsa, shifokorga murojaat qilish kerak.

Qo'llanilish usuli

Ichga qabul qilinadi.

Preparat qo'llanilish vaqtida ko'p miqdorda suyuqlik ichish kerak.

Nojo'ya ta'sirlar

Juda tez-tez ($\geq 1/10$); tez-tez ($\geq 1/100$ dan $< 1/10$ gacha); tez-tez emas ($\geq 1/1000$ dan $< 1/100$ gacha); kam hollarda ($\geq 1/10000$ dan $< 1/1000$ gacha); juda kam hollarda ($< 1/10000$), tez-tezligi noma'lum (mavjud ma'lumotlar asosida aniqlanishi mumkin emas).

Immun tizim tomonidan buzilishlar

Tez - tezligi noma'lum: allergik reaksiyalar (qichishish, toshma, eshakemi, allergik rinit, yuz shishi).

Nerv tizimi tomonidan buzilishlar

Tez - tezligi noma'lum: bosh aylanishi.

Me'da-ichak yo'li tomonidan buzilishlar

Tez - tezligi noma'lum: ko'ngil aynishi, qusish, diareya, qorin shishi.

Teri va teri osti biriktiruvchi to'qimalar tomonidan buzilishlar

Tez - tezligi noma'lum: ultrabinafsha nurlari ta'siriga fotosensibilizatsiya.

Har qanday nojo'ya ta'sirlar, shu jumladan ushbu yo'riqnomada ko'rsatilmaganlar haqida shifokoringizga xabar berish kerak.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Faol moddaga yoki astra gullar oilasiga mansub o'simliklarga (*Asteraceae*, erta *Compositae*), soyabongullilar oilasiga mansub o'simliklarga (*Apiaceae*, erta *Umbelliferae*), anetolga yoki oq qayiq gulchanglaridan tayyorlangan allergenlarga yoxud biron-bir va/yoki preparatning boshqa komponentlari yuqori sezuvchanlikda qo'llash mumkin emas.

Iste'mol qilinadigan suyuqlik miqdorini kamaytirish zarur bo'lgan holatlarda (masalan, og'ir darajali yurak yoki buyrak kasalliklari).

Dorilarning o'zaro ta'siri

Hozirgacha dorilarning o'zaro ta'siri qayd etilmagan.

Preparatning diuretik ta'siri tufayli boshqa bir vaqtda qabul qilinadigan dori preparatlarining tezroq chiqarilishini hisobga olish kerak.

Preparat peroral antikoagulyantlar (shu jumladan, nosteroidli yallig'lanishga qarshi preparatlar), gipoglikemiyalaydigan preparatlar, litiy tuzlari, monoaminoksidaza ingibitorlari ta'sirini kuchaytirishi, pentobarbital, aminopirin va paratsetamol ta'sirini uzaytirishi, shuningdek ingichka ichakda beta-karotin, alfa-tokoferol, xolesterin va boshqa preparatlar singishini susaytirishi mumkin.

Maxsus ko'rsatmalar

Preparat yurak yetishmovchiligi yoki buyrak yetishmovchiligi tufayli chaqirilgan shishlar qayd etilgan patsientlarda qo'llanilmasligi kerak.

Pichan urug'lari pajitnigining gipoglikemiyalaydigan ta'siri tufayli qandli diabet bo'lgan patsientlar qonda qand darajasini kuzatib borishlari kerak.

Agar simptomlar kuchaysa yoki saqlanib qolsa yondosh ular bilan birga isitmalash, siyishda og'riq va qiyinchilik bo'lsa yoki siydikda qon bo'lsa, darhol shifokorga murojaat qilish kerak.

Bolalar

Bolalar va 18 yoshdan kichik yoshdagi o'smirlarda qo'llanilishi tavsiya etilmaydi, chunki ixtisoslashgan shifokor konsultatsiyasi talab qilinishi mumkin.

Yordamchi moddalar

Preparat bitta dozada 100 mg dan kamroq miqdorda etanol (spirt) saqlaydi.

Dori preparati bitta kapsulada 126,64 mg sorbitol saqlaydi. Ushbu dori preparati fruktozaga nasliy o'zlashtiraolmasligi bo'lgan patsientlarda qo'llanilmasligi kerak.

Homiladorlik vaqtida va laktatsiya davrida qo'llanilishi

Preparat tarkibiy moddalarining genotoksik ta'siriga doir ma'lumotlar yo'qligi tufayli homiladorlik vaqtida va ko'krakdan emizish davrida ushbu preparatning qo'llanilishi tavsiya etilmaydi.

Dori preparati homiladorlik vaqtida faqat, shifokor fikricha, ona uchun foyda homila uchun potentsial xavfdan yuqori bo'lgan holatda qo'llanilishi mumkin.

Transport vositalari va murakkab mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Transport vositalari va murakkab mexanizmlarni boshqarishga qarshi ko'rsatmalar to'g'risida ma'lumotlar yo'q.

Dozaning oshirib yuborilishi

Hozirgi vaqtgacha dozaning oshirib yuborilishi holatlari qayd etilmagan.

Chiqarilish shakli

10 tadan kapsula blisterda alyuminiy folgali va PVX/ PVDX plyonkadan tayyorlangan.

4 tadan blister karton o'ramda tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnoma bilan birga joylashtirilgan.

Saqlash sharoiti

Original o'ramda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.

Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

2 yil.

Yaroqlilik muddati o'tganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berilish tartibi

Retseptsiz

Ro'yhatdan o'tkazilganlik guvohnomasining egasi

“Химфарм” АЖ, Qozog'iston Respublikasi,
Shimkent sh. 160019, Rashidov ko'chasi, 81

Ishlab chiqaruvchi

Pharmaceutical Works POLPHARMA S.A. Medana Branch in Sieradz
Wladyslawa Lokietka ko'ch, 10, 98-200 Sieradz, Polsha

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositasining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar) ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

“Chimpharm” vakolatxonasi, O'zbekiston Respublikasi

Toshkent sh., Qozitarnov ko'ch., 50 uy,

Tel.: +99897 107 55 53

Avtojavob beruvchi raqamlari: +99871 205 10 58

Elektron pochta manzili: info.uzbekistan@santo.uz